

SURXON MILLIY LIBOSLARI TARIXI.

Boboyorova Hayitoy Uchqun qizi¹
hayitoyboboyorova2311@gmail.com
+998997439603

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filliali talabasi

Davronova Asila Yusuf qizi²

²Termiz davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti talabasi
+998992621908

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7139091>

Xalq turmushining boshqa sohalari singari milliy liboslarni o'rganish har bir xalqning etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tatbiq etish bilan chambarchas bog'liqdir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezon ham hisoblanadi. Shu ma'noda libos tarixini o'rganish yer kurrasida mana necha ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqlar boy madaniy merosi, shu bilan birga ularning an'analari, yashash tarzi haqida kattagina ma'lumot ham beradi. Liboslar nafaqat insonlarning tabiiy va estetik ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga ularda har bir millatning urf-odatlarini, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotiyigi, quvonchli yoxud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi.

Liboslarning asosiy turlari va shakli. Ba'zi bir tadqiqotchilar kiyim uyalish hissiyoti sabab paydo bo'lgan desa, boshqasi o'z tanasi bezash niyati sabab deydi, uchinchi birlari esa inson sovuqdan himoyalani uchun kiyimga ehtiyoj sezgan deb javob beradi. Darhaqiqat, kiyim qachon paydo bo'lgan degan savol ko'pchilikni qiziqitirsa kerak. Insoniyat unga nima sabab ehtiyoj sezgan? Bu va bu kabi savollarga javob berish uchun qadimshunoslik fani yordamga keladi. Qadimshunoslik (arxeologik) qazilmalar kiyim insoniyat taraqqiyotining eng qadim davrlarida (40-25 ming yil ilgari) paydo bo'lganini ko'rsatadi. Poyabzal birmuncha keyingi davrlarda paydo bo'lgan bo'lib, libosning boshqa elementlaridan ko'ra birmuncha kam tarqalgan.

Kiyim nafaqat tabiiy ehtiyojni ta'minlovchi bir vosita, shu bilan birga u amaliy san'at namunasi hamdir. U amaliy san'atning barcha namunalari singari go'zallik hamda ma'lum bir maqsadga yo'naltirganlik bilan ajralib turadi. Tanani turli tashqi ta'sirlardan, xususan, issiq va sovuqdan saqlashdek amaliy vazifani bajarish bilan birga, u bezak, chiroy singari estetik funksiyalarga ham ega. Shu sababli ham jamiyat taraqqiy etib borgan sari, insonlar estetik didi oshib borgan sari kiyimlarning bezagiga, asosiysi takronlanmasligiga e'tibor ortib boraveradi.

Surxondaryo viloyati Sho'rch'i tumanidagi 1-umumta'lim maktabi tarix va o'lkashunoslik muzeyida 100 yillik tarixga guvoh paranji saqlanadi. Mahalliy aholi orasida ayollar paranjisi vazifasida foydalangan kiyim jyelak atalgan. Ushbu jyelak birinchi Xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida namoyish etildi.

Tumandagi 1-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi Jamila Usmonovaning aytishicha, jyelakning sohibi Xadicha Alimardonova 1978 yilda sakson besh yoshida vafot etgan. Asl surxon ipagidan to'qilgan jyelakni Xadicha momo kelinlik davridan kiygan. Qariyb bir asrdan ortiq umr ko'rgan paranji tashqi ta'sirlarga uchramay, tabiiy ko'rinishini yo'qotmagan.

Termiz shahrida tashkil etilgan festivalda milliy an'ana va urf-odatlarni targ'ib etayotgan Surxondaryoning Sherobod tumani G'ambur qishlog'i mahalla fuqarolar yig'ini mutaxassisi Saxovat To'rayeva bilan suhbatlashib, ayollar paranjisi haqida ko'proq ma'lumot oldik.



«Paranjining ortdan ko'rsangiz qo'llari bog'langan bo'lishi mumkin. Bu libos turmushga chiqmagan qizning belgisi, qo'li ochiq bo'lsa, turmush qurgan ayoldan darak bergan. Shuningdek, Surxon vohasiga oid farq shundaki, ayollar libosi, xususan jyelakdagi jiyaklar turli etnik, madaniy, hududiy mansublik, qavmga oidlikni bildirgan», — deydi u.

To'rayevaning aytishicha, paranji odatda keng o'lchamda tikilgan, libosni kiyish uchun jyelak boshga tashlanadi. Shu holatda paranjining yenglari o'ziga xos cho'ntak vazifasi o'tagan. Momolar paranjisi yangi qismi o'ziga xos kissa,

bolalarga tarqatish uchun shirinlik, non saqlaydigan joy ham bo'lgan. Festivalga tashrif buyurgan xorijiy mehmonlar tarixiy liboslarni tomosha qilib, o'zbek ayollarning asl kiyimi, turmushi bilan yaqindan tanishdi.